



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SIFAT MENEJMENTI
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY BARQARORLIGI**

**ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ УСЛУГ И
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА**

**SERVICE QUALITY MANAGEMENT AND ECONOMIC SUSTAINABILITY OF SMALL
BUSINESS ENTITIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION**

Nematova Shaxlo Egamberdievna

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisod fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifatini boshqarish va kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida kompleks tahlil qilinadi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar, jumladan Raqamli O‘zbekiston – 2030, Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasidagi chora-tadbirlar, 2021–2025 yillardagi statistik ma’lumotlar va xalqaro tajriba asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, xizmatlar sifati, kichik biznes, iqtisodiy xavfsizlik, CRM, ERP, AI, Big Data, kiberxavfsizlik, raqamli iqtisodiyot.

В данной статье комплексно анализируются вопросы управления качеством услуг и обеспечения экономической безопасности малого бизнеса в условиях цифровой трансформации в контексте реформ, реализуемых в Республике Узбекистан. В частности, на основе указов и постановлений Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, включая стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030», Стратегию действий, а также Стратегию развития Нового Узбекистана, а также статистических данных за 2021–2025 годы и международного опыта, сформулированы научные выводы и предложения.

Ключевые слова: цифровая трансформация, качество услуг, малый бизнес, экономическая безопасность, CRM, ERP, искусственный интеллект, Big Data, кибербезопасность, цифровая экономика.

This article provides a comprehensive analysis of service quality management and the economic security of small business entities under conditions of digital transformation within the framework of ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan. In particular, based on the decrees and resolutions adopted by President Shavkat Mirziyoyev, including the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy, the Action Strategy, and the Development Strategy of New Uzbekistan, as well as statistical data for 2021–2025 and international experience, scientific conclusions and recommendations are developed.

Keywords: digital transformation, service quality, small business, economic security, CRM, ERP, artificial intelligence, Big Data, cybersecurity, digital economy.

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning drayveriga aylanmoqda. O‘zbekistonda xizmatlar sektorining raqamlashtirish jarayonlari mamlakatda tizimli ravishda olib borilmoqda. Xususan, 2020 yilda tasdiqlangan Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan xizmat ko‘rsatish sohasini to‘liq raqamlashtirishni maqsad qilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, elektron xizmatlarni kengaytirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar

asosida xizmatlar sifatini boshqarish va kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda istiqbollari aniqlash zarur[1].

Bugungi kunda sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar va raqamli to’lov tizimlari iqtisodiy faoliyatning har bir jabhasiga kirib bormoqda. Elektron tijorat tez sur’atlarda kengaymoqda, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi esa fuqarolar uchun qulaylik yaratmoqda. Bu o’zgarishlar transformatsiya deb ataladi va u ishlab chiqarishdan tortib bank xizmatlarigacha barcha sohalarda sezilmoqda.

O‘zbekiston hukumati “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali raqamli iqtisodiyot asoslarini yaratmoqda. Elektron hukumat tizimi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, raqamli bank xizmatlari, masofaviy ta’lim va tibbiyot sohasida keng ko‘lamli raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

2021–2025 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. Raqamli transformatsiya jarayonida menejment strategiyalarining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir qiladi:

-Texnologik rivojlanish: Yangi texnologiyalar, masalan, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash va IoT (Internet of Things) tashkilotlarning faoliyatini tubdan o‘zgartiradi. Bu texnologiyalarni qo‘llash menejment strategiyalarini yangilashni talab qiladi.

-Bozor talablarining o‘zgarishi: Mijozlar ehtiyojlari va bozor talablarining o‘zgarishi tashkilotlarni yangi strategiyalarni ishlab chiqishga undaydi. Raqamli transformatsiya jarayonida tashkilotlar mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash va ularning ehtiyojlariga mos ravishda xizmatlar taklif qilishlari zarur.

-Raqobat muhitining o‘zgarishi: Raqobatbardosh muhitda tashkilotlar raqamli transformatsiya orqali o‘z raqobatbardoshligini oshirishga intilishadi. Bu, o‘z navbatida, menejment strategiyalarining yangilanishini talab qiladi.

-Ijtimoiy va iqtisodiy omillar: Ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar, masalan, pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz, tashkilotlarning raqamli transformatsiya jarayoniga ta’sir qiladi. Ushbu omillar menejment strategiyalarini o‘zgartirishga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotdagi ko‘plab kompaniyalar uchun asosiy to‘siq — bu malakali mutaxassislarining yetishmasligidir. Ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt va raqamli marketing strategiyalari kabi sohalarda mutaxassislarga bo‘lgan talab ko‘pincha taklifdan oshib ketadi. Kompaniyalar tobora raqamli muhitda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lgan iste’dodlarni yollash va saqlab qolish muammosiga duch kelishmoqda. An’anaviy biznes modellaridan raqamli platformalarga o‘tish ko‘pincha ish jarayonlariga jiddiy tuzatishlar kiritishni va yangi texnologiyalarni integratsiyalashni talab qiladi. Bu vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin. Kompaniyalar axborot texnologiyalari, ma’lumotlar tahlili va raqamli marketing bo‘yicha zarur ko‘nikmalarga ega iste’dodlarni topish uchun kurashmoqda.

Raqamli iqtisodiyot kompaniyalardan nafaqat texnologiyaga moslashishni, balki ish modellari nuqtai nazaridan moslashuvchanlik va chaqqonlikni oshirishni ham talab qiladi. Masofaviy ish, moslashuvchan jadvallar va turli vaqt zonalarida hamkorlik muhim elementlarga aylandi. Kompaniyalar o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga tezda moslasha olishi va xodimlarning qoniqishi va unumdorligini saqlab turishi kerak. Raqamlashning kuchayishi bilan ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsizlikka oid xavotirlar ham ortib bormoqda. Kompaniyalar maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik choralarini qo‘llashlarini ta’minlashi kerak. Bu nafaqat texnologik yechimlarni, balki xodimlarni ma’lumotlarni himoya qilish qoidalaridan xabardor bo‘lish uchun o‘qitishni ham talab qiladi.

Elektron davlat xizmatlari sonining 300 tadan 700 dan ortiq xizmatga yetishi davlat boshqaruvida transformatsion modelga o‘tilganini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich oddiy kvantitativ o‘lchov emas, balki ma’muriy jarayonlarning raqamli platformalarga integratsiyalashuvi natijasidir. Elektron xizmatlarning kengayishi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, byurokratik to‘siqlarni qisqartirdi hamda xizmat ko‘rsatish tezligini oshirdi. Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, tranzaksiya xarajatlarining qisqarishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omilidir. Onlayn to‘lovlar hajmining 2,5 baravar oshishi esa raqamli moliyaviy infratuzilmaning mustahkamlanayotganini

anglatadi. Raqamli to‘lov tizimlari iqtisodiy shaffoflikni ta‘minlaydi, naqd pul aylanmasini qisqartiradi va soliqqa tortish bazasini kengaytiradi. Bu jarayon fiskal barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Moliyaviy iqtisodiyot nazariyasida raqamli to‘lov tizimlari iqtisodiy faoliyatni “soya iqtisodiyoti” dan rasmiy sektorga o‘tkazuvchi omil sifatida qaraladi.

IT-park rezidentlari sonining 2000 dan oshishi innovatsion ekotizim shakllanayotganini ko‘rsatadi. Innovatsion klaster nazariyasiga ko‘ra, bunday muhit texnologik diffuziyani tezlashtiradi va bilimlar almashinuvini kuchaytiradi. Bu esa xizmatlar sektorida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratuvchi faoliyat turlarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiyalar orqali kichik biznesni rivojlantirish masalasi dunyo olimlari va ekspertlari tomonidan keng o‘rganilgan. Quyida ushbu mavzuda e‘tibor qaratilgan muhim ilmiy ishlarga tahliliy yondashuv berilgan: Tapscott, D. *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence* raqamli iqtisodiyot tushunchasi keng yoritilgan bo‘lib, iqtisodiyotdagi transformatsion o‘zgarishlarning mohiyati, raqamlashtirishning roliga alohida e‘tibor qaratiladi. Muallif raqamli iqtisodiyotni “tarmoqlangan aql” asrining asosiy elementi deb hisoblaydi[2].

Brynjolfsson, E. & McAfee, A. “The Second Machine Age” kitobida inson faoliyatining avtomatlashtirilishi va sun‘iy intellekt, raqamli platformalar orqali iqtisodiy samaradorlikning oshishi muhim jihat sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Mualliflar kichik bizneslar uchun texnologik rivojlanish yangi imkoniyatlarni ochishini ta‘kidlaydi[3]. Murodov, A. “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlari” maqolasida raqamli transformatsiyaning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, IT sohasiga investitsiyalar va kichik biznes subyektlariga ta‘siri yoritilgan[4]. Zammit D. “E-commerce platforms and global SME access” nomli maqolada elektron savdo platformalari orqali kichik va o‘rta bizneslarning xalqaro bozorlarga chiqishdagi imkoniyatlari empirik tahlil asosida ko‘rsatilgan. Ayniqsa, Amazon, eBay va Shopify kabi platformalar misolida solishtirma tahlillar mavjud [5].

To‘xtayev, F. “Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy biznes modeli” maqolasi kichik bizneslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish madaniyati va sharoitlarini yoritadi. Muallifning fikricha, biznes modellarni raqamli iqtisodiyotga moslashtirish kichik subyektlar barqarorligining asosiy omili hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarining barqaror rivojlanishi va strategik taraqqiyoti dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayoni xizmat ko‘rsatish faoliyatini nafaqat avtomatlashtirish va operatsion jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi, balki mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni interaktiv hamda individuallashtirilgan shaklda tashkil etish uchun qulay institutsional muhit yaratadi. Hozirgi sharoitda iste‘molchilar talabi dinamik ravishda o‘zgarib borayotganligi sababli, raqamli texnologiyalar asosida real vaqt rejimida xizmatlar ko‘rsatish, moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqish hamda xizmat sifati ustidan tizimli monitoring olib borish xizmat ko‘rsatish sohasining raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim determinant sifatida namoyon bo‘lmoqda.

1-jadval

2024 va 2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy jadval[10]

Ko‘rsatkich nomi	2024-yil	2025-yil
YAIM nominal hajmi	1 535,4 trln so‘m	1 849,7 trln so‘m
YAIM (dollar ekvivalentida)	\$121,4 mlrd	\$147,2 mlrd
Real o‘sish sur‘ati	6,7 %	7,7 %
Inflyatsiya (yillik)	9,8 %	7,3 %
Aholi jon boshiga YAIM	\$3 325	\$3 960

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va rasmiy nashrlar tomonidan e‘lon qilingan 2025-yil yakuniy ko‘rsatkichlariga ko‘ra:

Xizmatlar sohasining 8,5 % lik o‘sishi shunchaki miqdoriy ko‘rsatkich emas,

balki raqamli transformatsiya natijasida xizmatlar sifatining yaxshilanishi mahsulidir. Ya‘ni, xizmat ko‘rsatish jarayonlariga raqamli sifat menejmenti tizimlari joriy etilishi mijozlar oqimini va

soha hajmini oshirgan. YAIMning 1 849,7 trln so‘mga yetishi va 7,7 % lik real o‘shish mamlakatda kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi ta‘minlanayotganini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar kichik biznesga xarajatlarni kamaytirish va sifatni nazorat qilish orqali mana shunday yuqori o‘shish sur‘atlariga erishish imkonini bermoqda. Inflyatsiyaning pasayishi kichik biznes uchun xomashyo narxlarini barqarorligini O‘zbekiston iqtisodiyotining 2025-yil yakunlari bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 1 849,7 trillion so‘mni tashkil etib, real o‘shish sur‘ati 7,7 % darajasida ta‘minlandi. Ushbu ijobiy dinamika zaminida, ayniqsa, xizmatlar sohasining 8,5 % lik hamda qurilish sohasining 14,2 % lik o‘shishi muhim o‘rin tutadi. Xususan, inflyatsiya darajasining 7,3 % gacha pasayishi va aholi jon boshiga YAIMning 3960 dollarga yetishi iste‘mol bozorida sifatga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Shunday qilib, 2025-yilgi iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari xizmatlar sohasidagi sifat o‘zgarishlari iqtisodiy barqarorlikning bosh drayveri ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa tadbirkorlarga bor e‘tiborni xizmat ko‘rsatish sifati menejmentiga qaratish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni rejalashtirish uchun sharoit yaratdi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalar xizmatlar sifatini boshqarishda nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki strategik barqarorlikni ham ta‘minlaydi. Xizmat ko‘rsatish sektorida raqamlashtirish jarayoni mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirishga yordam beradi.

Kichik biznes subyektlari uchun raqamli transformatsiyalar iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning muhim vositasi bo‘lib, ular orqali moliyaviy risklarni minimallashtirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va bozor o‘zgarishlariga tez moslashish imkoniyati yaratiladi. Biroq, raqamlashtirish jarayoni ma‘lum xavflarni ham yuzaga keltiradi: kiberxavfsizlik tahdidlari, dasturiy ta‘minot xarajatlari, kadrlar malakasining yetarli emasligi. Shu bois, kichik biznes subyektlari raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich va kompleks yondashuv asosida amalga oshirishi lozim.

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini oshirish bo‘yicha strategik maqsadlariga izchil erishmoqda. 2030 yilgacha bu ulushni sezilarli darajada oshirish bo‘yicha davlat strategiyalari belgilangan. XXI asrda global iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida raqamli texnologiyalar maydonga chiqdi. Postindustrial iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sektori yalpi ichki mahsulotning eng katta qismini shakllantiruvchi tarmoqqa aylandi. Raqamli texnologiyalar ushbu sektorni tubdan o‘zgartirib, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezkor, shaffof va samarali shaklga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida 2021–2025 yillarda xizmatlar sektori ulushi barqaror o‘shish dinamikasini namoyon etdi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur islohotlar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan. Kichik biznesning iqtisodiy xavfsizligi esa moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari, likvidlilik darajasi, raqamli xavfsizlik indikatorlari va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni.
2. Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy*. McGraw-Hill. 23–45-betlar.
3. Brynjolfsson, E. & McAfee, A. (2016). *The Second Machine Age*. Norton & Company. 56–78-betlar.
4. Murodov, A. (2022). “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlari”. TDIU nashriyoti. 12–21-betlar.
5. Zammit, D. (2020). “E-commerce platforms and global SME access”. *Journal of Global Commerce*, 18(2), 89–105-betlar.
6. Karimov, I. (2023). “Kichik biznesni raqamli platformalarga integratsiyalash strategiyasi”. *IQTISODIYOT*, 3(1), 45–53-betlar.
7. Hasanov, B. (2022). “Elektron savdo va kichik biznesning eksport salohiyati”. *O‘z.R Iqtisodiy sharhlar*, 4(2), 58–67-betlar.

8. To‘xtayev, F. (2021). “Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy biznes modeli”. Innovatsion rivojlanish jurnali, 2(3), 33–42-betlar.
9. Nematova Sh.E. Quality management in the education alprocess: challenges and future strategies Том 5, № 01 (2026): Международный журнал политических наук и экономики 5 (01), 405-408. <https://doi.org/10.55640/405-408> str
10. Нематова Ш Совершенствование механизмов управления качеством услуг в условиях цифровой трансформации. Proceeding XXI international conference «industrial technologies and engineering» ICITE – 2025. M. Auezov South Kazakhstan Research University Shymkent, Kazakhstan November 13-14, 2025
11. Nematova Sh.E. Xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion boshqaruv yondashuvlari. “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 10-son 2025 yil

UDK:338.2

**RAQAMLI IQTISODIYOT — YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIY ISLOHOTLARINING
TAYANCH OMILI**

**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА — КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКИХ
РЕФОРМ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**DIGITAL ECONOMY — A KEY FACTOR OF THE NEW UZBEKISTAN ECONOMIC
REFORMS**

Rasulov Umidjon Akmaljon o‘g‘li

Farg‘ona Davlat Universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlarida raqamli iqtisodiyotning tayanch omili sifatidagi muhim rolini atroflicha tahlil qiladi. Global miqyosda raqamli iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi, so‘ngra O‘zbekistonda bu sohaning joriy holati, tarkibiy qismlari va uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi baholanadi. Maqolada Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida belgilangan iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlari raqamli asosda qanday amalga oshirilayotgani, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" dasturining ahamiyati, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonidagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotning mahsuldorlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va jahon bozorlariga integratsiyani chuqurlashtirish borasidagi transformativ ta‘sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, Yangi O‘zbekiston, iqtisodiy islohotlar, raqamli transformatsiya, IT parklar, elektron hukumat, innovatsiya

Данная статья всесторонне анализирует важнейшую роль цифровой экономики как ключевого фактора экономических реформ Нового Узбекистана. Рассматриваются глобальные тенденции возникновения и развития цифровой экономики, после чего оценивается текущее состояние этой сферы в Узбекистане, ее составляющие и доля в валовом внутреннем продукте страны. В статье научно освещается, как направления экономических реформ, определенные в Стратегии развития Нового Узбекистана, реализуются на цифровой основе, значимость программы "Цифровой Узбекистан – 2030", а также основные проблемы в процессе цифровой трансформации и пути их решения. Результаты исследования демонстрируют преобразующее влияние цифровой экономики на повышение производительности, улучшение качества услуг, создание новых рабочих мест и углубление интеграции в мировые рынки.